

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjaeva
2026-yil 6-mart**

**60111400 – O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA‘LIM YO‘NALISHI SIRTQI
BITIRUVCHI KURS TALABALARI UCHUN FANLARARO YAKUNIY
DAVLAT ATTESTATSIYA SINOV
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI (Сиртки)**

Bilim sohasi:	100000 –Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Bakalavriat yo‘nalishi:	60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti

Ushbu dasturda 60111400- O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi sirtqi ta'lim Hozirgi o'zbek adabiy tili, O'zbek adabiyoti fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi, baholash mezonlari, savollari va o'quv adabiyotlari hamda elektron ta'lim resurslari keltirilgan.

Tuzuvchilar:

O.To'xtasinova

Qo`qon davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

I.Madrahimov

Qo`qon davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)

Sh.Akramov

Qo`qon davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

B.Xasanova

Qo`qon davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Z.Xolmatova

Qo`qon davlat universiteti
Pedagogika kafedrasini mudiri, Dsc, professor

Taqrizchilar:

D.Xasanova

Qo`qon davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)

M.Djurayev

Qo`qon davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

N.Erkaboyeva

Qo`qon davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani
professor, pedagogika fanlari doktori

Qoʻqon davlat universiteti Kengashining 2026-yil 6-mart 7-sonli - qarori bilan tasdiqlangan.

**60111400-Oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishi bitiruvchi sirtqi talabalari uchun
“Hozirgi oʻzbek adabiy tili” fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovining
dasturi**

-Hozirgi oʻzbek adabiy tili, Dialektologiya, Oʻzbek adabiy tili tarixi, Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi kabi kurslarning predmeti, maqsadi va vazifalarini farqlay olish;

- tilning sistemaviy va strukturaviy xususiyatlarini, adabiy tili meʼyorlarini bilish; adabiy til va milliy til, adabiy til va dialektlar, adabiy til va jargon-argolar, adabiy til funktsional stillari (vazifaviy uslublar) oʻrtasidagi aloqalar, til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlariga oid umumnazariy bilimlardan, hozirgi oʻzbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslaridan xabardor boʻlish;

- oʻzbek tilining barcha boʻlimlari fonetika-fonologiya, grafika va orfografiya, orfoepiya, leksikologiya va frazeologiya, leksikografiya, morfemika va soʻz yasalishi, grammatika: morfologiya va sintaksis boʻyicha puxta bilimlarga ega boʻlish;

- oʻzbek tilining tilshunoslikka kirish, umumiy tilshunoslik kursi boʻyicha umumiy maʼlumotga ega boʻlish; oʻzbek tishunosligida shakllangan va shakllanib borayotgan yangi yoʻnalishlardan xabardorlik; til taʼlimiga doir nazariy maʼlumotlarni amaliy qoʻllay olish kabilar boʻyicha bilimlarga ega boʻlishi;

- hozirgi oʻzbek tilining ogʻzaki va yozma shakllarini meʼyorlashtirib turuvchi qoidalar tizimini, orfoepiya, grafika, orfografiya, punktuatsiyani amaliy qoʻllash koʻnikmasini egallagan boʻlishi;

- hozirgi oʻzbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi lingvistik va ekstralingvistik omillar xususida fikr yurita olish;

- fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfemik, morfologik va sintaktik tahlil koʻnikmalariga ega boʻlish;

- til va yozuvga oid davlat xujjatlaridan farmon, qonun va qarorlardan, shuningdek tilshunoslikning u yoki bu sohasida ishlagan yetakchi mutaxassilar faoliyatidan xabardor boʻlish;

- Mustaqillik yillarida oʻzbek tili lugʻat boyligida sodir boʻlgan va boʻlayotgan oʻzgarishlarni, shuningdek, rasmiy ish yuritish va atamashunoslik bilan bogʻliq jarayonlarni toʻgʻri baholay olish;

- o‘zbek adabiy tili fanining tarixi va rivojlanishi. Badiiy asar tili va til xususiyatlarini tahlil qila olish. Nazariy tushunchalarni o‘rganish usullarini bilish va ularni amaliy qo‘llash. Badiiy asar matni ustida ishlash bosqichlari. O‘zbek tilining nazariy masalalarini mukammal o‘zlashtirish ustida izlanish olib borish ko‘nikmasiga ega bo‘lish hamda ularni dalillay olish. O‘zbek tili masalalarini o‘quvchi shaxsiga yetkazish usul va metodlaridan boxabar bo‘lish, interaktiv, yangi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliy qo‘llay olish, ulardan umumli foydalanish malakasiga ega bo‘lish.

60111400- O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi sirtqi talabalari uchun Hozirgi o‘zbek adabiy tili fanidan yakuniy davlat attestatsiya sinovlarining asosiy savollari

1. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursining obykti nima?
2. Grafika nima?
3. Fonetikaning maqsadi?
4. So‘z urg‘usining fonetik tabiatiga ko‘ra qanday turlari bor?
5. Lotin o‘zbek yozuvining grafik tizimida analitik grafemalar bormi?
6. Xususiy fonetika nimani o‘rganadi?
7. Oppozitsiyadagi integral belgilar korrelatsiyada farqlovchi belgilar vazifasini bajaradimi?
8. Eksperimental fonetika nimani tadqiq qiladi?
9. Fonetikaning fizik-akustik aspektida nimalar o‘rganiladi?
10. Fonetikaning perseptiv aspektida nimalar o‘rganiladi?
11. Fonetikaning lingvistik-funksional aspektida nimalar o‘rganiladi?
12. Ona va ona, Siz va siz, Vatan va vatan so‘zlarining yozuvda kichik yoki bosh harf bilan boshlanishi orfografiyaning qaysi prinsipiga asoslanadi?
13. Transkripsiyaning qanday turlari bor?
14. Hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmi necha unlini o‘z ichiga oladi?
15. Bo‘g‘in cho‘qqisi nima?
16. Grafema bu - ...
17. Tovush tilining qaysi birligi kodlashtirilganligiga ko‘ra g` harfi qanday grafema sanaladi?
18. Tovush tilining qaysi birligi kodlashtirilgan bo‘lishiga ko‘ra 1,2,3 raqamlari qanday grafemalar hisoblanadi?
19. Tovush tilining qaysi birligi kodlashtirilganligiga ko‘ra nuqta (.), vergul (,), undov (!) belgisi qanday grafemalar sanaladi?
20. Lotincha o‘zbek alifbosining so‘nggi varianti qachon qabul qilindi?
21. Lotin o‘zbek alifbosining amalga kiritilgan so‘nggi variantida nechta grafik belgi bor?

22. O'zbek tili unli fonemalarini yozuvda ifodalash uchun qo'llanadigan harflar miqdori lotin-o'zbek alifbosida nechta?
23. Qanday holatlarda so'zning yozma shaklida grafik-fonetik simmetriya ta'minlanadi?
24. *Anglamoq* fe'lining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
25. *Bitta dona* sonining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
26. *Tesha* (atoqli ot) va *tesha* (turdosh ot), *Muhabbat* (atoqli ot) va *muhabbat* (turdosh ot) so'zlarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
27. *Ulug'*, *sariq* so'zlaridan yasalgan *ulg'aymoq*, *sarg'aymoq* fe'llarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
28. *Maktab*, *savod* - mazkur so'zlarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
29. *Aytgan*, *aytguncha* kabi fe'l shakllarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
30. *Majlis* va *jurnal* so'zlarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
31. *Taqozo*, *jumhuriyat* so'zlarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
32. *Atlas*, *atlas*, *davo*, *da'vo* so'zlarida urg'u belgisi va ayirish belgisining ishlatilishi orfografiyaning qaysi prinsipi talablaridan kelib chiqadi?
33. *Shkaf*, *nashr*, *go'sht* kabi so'zlarning yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
34. Tuproq so'zi tarkibidagi *p* va *r* undoshlarining ayrim shevalarda yoxud jonli so'zlashuvda o'rin almashinuvi (*turpoq* shaklida qo'llanilishi) qanday hodisa hisoblanadi?
35. So'z tarkibidagi ikkita bir xil bo'g'indan birining talaffuzda tushib qolishi (morfofonologiya > morfonologiya kabi) qanday fonetik hodisa sanaladi?
36. Aksentuatsiya nima?
37. Intonatsiya nima?
38. Morfema terminini kim tilshunoslikka olib kirgan?
39. Morfemika bo'yicha monografik tadqiqot olib borgan olim kim?
40. Qaysi olim morfemalarni tabiatiga ko'ra affiks, affiksoid, leksik tabiatli morfema deb uch turga ajratadi?
41. Leksemaning ko'chma ma'nosi deyilganda nima nazarda tutiladi?
42. Qaysi so'zlar leksik ma'noga ega bo'ladi?
43. Tilda bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanadigan bir necha leksema qanday nomlanadi?
44. Bitta shu tuyoq bilan oltita bolani boqdim. Ushbu gapdagi ma'no ko'chish yo'lini izohlang.
45. So'zlarning ko'chma ma'nosi qaysi lug'atda izohlanadi?

46. Oralaridan mushuk o'tdi frazemasi qanday ma'noni anglatadi?
47. Urush ko'p odamlarning yostig'ini quritdi. Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish yo'lini belgilang.
48. Shirin xayollarga berildi. Gapdagi sifatda qanday ma'no ko'chishi bo'lgan?
49. Nominativ birlik bu-?
50. Ifoda semalari deyilganda nimani tushunamiz?
51. Terminlarning ommalashib umumiy nutq birligiga aylanishi hodisasi tilshunoslikda nima deyiladi?
52. Narsa - hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslangan ma'no ko'chirilishi bu-...
53. «Kovushini to'g'irlab qo'ymoq» iborasining lug'aviy ma'nosi?
54. *zobit, iloh, lavh* so'zlari tilimizga qaysi tildan o'zlashgan?
55. Vulgarizmlar qanday ma'nodagi so'zlar?
56. Nomema nima?
57. Leksik ma'no taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar...
58. Leksik ma'no nechta turga bo'linadi?
59. Qaysi xususiyatiga qarab leksik ma'no asosiy va yasama ma'nolar bo'ladi?
60. Leksik omonimiyaga yondosh hodisalar.
61. Omograf nima?
62. Qanday hodisa paronimiya sanaladi?
63. *ozgina, sal, picha, xiyol, jinday, qittay, jichcha*-qanday sinonimga misol bo'ladi?
64. Argotizm nima?
65. Haqorat ma'nosida qo'llanadigan so'zlar qanday so'zlar deyiladi?
66. Bir necha ma'noni bildiruvchi so'zlar nima deyiladi?
67. Hosila ma'no nima?
68. Yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo'lgan leksemalar nima deyiladi?
69. Atash semalari yana qanday nomlanadi?
70. Siyoh so'zi tojik tilida qanday ma'noni bildiradi?
71. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlarning yig'indisi bu-...
72. Soddalashish hodisasida ...
73. So'zlarning shakliy o'zgarishini o'rganuvchi soha
74. So'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari tasnifi qanday tamoyillarga suyanadi?
75. *-lik* qo'shimchasi qanday ma'noli ot yasaydi?
76. Kelishik kategoriyasi birinchi navbatda qanday vazifani belgilaydi?

77. Kelishik shakllari qaysi yordamchilar bilan analitik grammatik forma hosil qiladi?
78. Qaratqich va tushum kelishiklarining qisqargan shakli qanday hodisani yuzaga keltiradi?
79. Qachon qaratuvchili birikmada qaratuvchini tushirish mumkin?
80. Qaralmish o'z olmoshi bilan ifodalanganda qanday ma'no bildiriladi?
81. Qanday konstruksiyalarda tushum kelishigi hamisha belgisiz ishlatiladi?
82. ...Bu go'zal qiz...oq-sariq tusda yaratilgan edi. Ra'noning sochi gungurt-qora, ya'ni quyoshsiz bo'lib ko'rinar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillar orqa-o'ngini tutib yotar.Ushbu matnda nechta sifat mavjud?
83. Sifatlarning ma'no guruhlarini belgilang:1.Xususiyat bildiruvchi2.Rang-tus bildiruvchi3.Maza-ta'm bildiruvchi4.Harakat-holat bildiruvchi5.Hid bildiruvchi6.Makon-zamon belgisini bildiruvchi
84. Qaysi gapda otlashgan sifat qaratqich aniqlovchi vazifasida kelgan?
85. Belgini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydigan va uni daraja-lab ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan sifat-lar---
86. Qori Ishkamba o'dguday ziqna odam edi.Ushbu gapdagi sifatning darajasi...
87. Sifatlarda qo'llanuvchi Qaysi modal forma sifat-larda va otlarda bir xil shaklga ega?
88. Butunning qismini, ulushini ifodalaydigan sonlar qanday nomlanadi?
89. Quyidagi gapda *bir* so'zi qanday ma'noda ishlatilgan?Mashina bir lapangladi-da, yana ilgariladi(Said Ahmad)
90. Og'iz, luqma kabi hisob so'zlari qanday vazifa bajaradi?
91. Harakatning ob'ekt va sub'ektga munosabatini bilduvchi kategoriya qaysi?
92. So'z birikmasi kompleksidagi qaysi so'z doim doim hokim bo'ladi?
93. Komponentlar tarkibidagi mustaqil so'zlar qanday bog'lanadi?
94. Sintaktik aloqalarni ifodalovchi vositalar
95. *CHopsa chopilmas, kessa kesilmas* tipidagi gaplar qanday gaplar hisoblanadi.
96. Kesim tarkibida hech, sira so'zlari qatnashgan bo'lsa u odatda
97. Determinantlik -...
98. Determinant gap bo'lagi masalasida izlanish olib borgan tilshunos kim?
99. Leksikologiyaning turlari:
100. Frazologiyaning obykti:

101. Leksikografiyaning predmeti:
102. Quyidagi sinonimik qatordagi soʻzlarning qaysi biri eskirgan
103. Ayol qalbi tosh boʻlsa ham, allaqayeri paxtadan yumshoq, ipakdan mayin boʻladi. Ushbu gapda gumon olmoshiqaysi gap boʻlagi vazifasida kelgan?
104. Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi. Ushbu gapda nechta soʻz birikmasi mavjud?
105. Har qanday til oʻzining soʻzlari, iboralari va qoʻshimchalaridagi imkoniyatlarini qaysi boʻlimda toʻliq namoyon qiladi?
106. Muzaffarning loʻppi yuzidagi achinish alomati xushnud tabassum bilan almashdi. Ushbu gapda otli soʻz birikmalarining soni nechta?
107. Darak maʼnosi soʻroq gap orqali va darak gap orqali ifodalansa, ular oʻrtasida qanday farq boʻladi?
108. Buyruq maʼnosini qanday gaplar orqali berish mumkin?
109. Gap kesimi hisoblanadi bogʻlamasi bilan shakllangan boʻlsa, gapning kesimi qanday kesim sanaladi?
110. Mehmon kelsa eshikdan, Rizqi kirar teshikdan. Ushbu gapdagi kesimlarni aniqlang.
111. Boshimda oʻynar qamchilar, qon koʻzlarimdan tomchilar, bir benavo gul yanchilar, ozodkorim kelmasa. Ushbu qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlarini belgilang.
112. Qaysi qatorda vazifadosh koʻmakchi otlashgan soʻzdan keyin qoʻllangan?
113. Tobe boʻlak hokim boʻlakka egalik, kelishik qoʻshimchalri koʻmakchilar, ohang yordami bilan bogʻlansa, qanday birlik hosil boʻladi?
114. Yigit-qizlarimiz oʻz aql-zakovati, kuch-qudratini toʻla-toʻkis namoyon qila olishi kerak. Ushbu gapda juft soʻzlar qanday gap boʻlagi vazifasida kelgan?
115. Buni kim bilmaydi? Berilgan gapdan soʻroq gap shakli orqali qanday gap mazmuni ifodalangan?
116. Nutq jarayonida fikr ifodalash uchun kerak boʻlgan soʻzlarning qoʻllanishi yoki qoʻllanmasligiga koʻra gaplar qanday turlarga boʻlinadi?
117. Soʻz birikmasida hokim boʻlak egalik qoʻshimchasidagi ot bilan ifodalangan boʻlsa, tobe boʻlak qaysi kelishikdagi ot bilan ifodalanadi?
118. Soʻz birikmasida hokim boʻlak belgi bildiruvchi soʻzlar bilan ifodalanib, qiyoslashga asos vazifasini bajarsa, qiyoslanuvchi soʻz qaysi kelishik shakli orqali bogʻlanadi?
119. Sintaksisda teng aloqa atamasi qanday izohlanadi?
120. Biri ikkinchisiga tobe boʻlgan boʻlaklar oʻzaro grammatik shakllar yordamisiz bogʻlansa, qanday aloqa sanaladi
121. Soʻz birikmasida egalik qoʻshimchasi hokim boʻlak oxiriga qoʻshilsa, tobe boʻlak qanday shaklda boʻladi?

122. Buyruq ma`nosi so`roq gap orqali va buyruq gap orqali ifodalansa, ular o`rtasida qanday farq bo`ladi?
123. Hokim so`z olmosh bilan ifodalangan so`z birikmalari qatorini toping.
124. Qaysi gap tarkibida ot +sifat tarzidagi boshqaruvli birikma mavjud ?
125. Bevosita kuzatishda berilmaganlik nima?
126. Qo'shimcha leksemasi o'zak va qo'shimchaga ajratiladimi
127. Qaysi affiks chama son hosil qilmaydi?
128. -in ma'no va vazifasiga ko'ra qanday morfema?
129. Qaysi so'z turkumining o'ziga xos sintaktik vazifasi yo'q?
130. Yordamchi so'zlar shakily xususiyatiga ko'ra necha xil bo'ladi?
131. Sifat odatda qaysi so'z turkumiga bog'lanadi?
132. Orttirma daraja qaysi usullar bilan hosil qilinadi?
133. Qaysi qatorda + derivatsion morfema + derivatsion morfema + derivatsion morfema shaklidagi so'z berilgan?
134. Tartib sonlar miqdor sonlardan asosan qaysi xususiyati bilan farqlanadi?
135. So'z-gaplarning alohida belgilari nechta?
136. Mustaqil so`z soni:
137. Son qanday hollarda kelishik va egalik affikslarini qabul qiladi?
138. Ravishdoshning morfologik mohiyati nimadan iborat?
139. O'zbek tili morfologik tizimini Yevropa tilshunosligi mezoni asosida talqin etishning ichki bosqichlari qaysilardan iborat?
140. Olmoshdan qaysi so'z turkumini yasash mumkin?
141. Sifatlar qaysi xususiyatiga ko'ra asliy va nisbiy sifatlarga bo'linadi?
142. Zamaxshariy turkiy tilning sinxronik formal tavsifi metodining bosh tamoyili qaysilar?
143. Leksemalarning ma'noviy tasnifidagi ilk bosqich belgisini ko'rsating.
144. Faqat fe'lning munosabat kategoriyalari:
145. Sodda sonlarning asosiy belgisi nima?
146. Shaxs-son:
147. Narsa, hodisani o'rganish jarayoni qaysi zaruriy bosqichlarda kechadi?
148. Ma'lum fanning o'rganilishi qaysi metodologiya asosida amalga oshiriladi?
149. Tub leksema qatorini toping?
150. Sonning qaysi turi ko'pincha egalik affiksi bilan qo'llaniladi?
151. Qaysi gapda ega shaxs oti bilan ifodalangan?
152. Ega belgilash-jamlash olmoshi bilan ifodalangan gapni aniqlang.
153. Har qanday til o'zining so'zlari, iboralari va qo'shimchalaridagi imkoniyatlarini qaysi bo'limda to'liq namoyon qiladi?
154. Qaysi birikmalarda tobe so'z sifat bilan ifodalangan?
155. Ma'lum zaruriy gap bo'lagi tushib qolsa ham, mazmuni ahlanadigan gap qanday gap deyiladi?
156. Qo'shma gapning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang.
157. Ikki komponentli qo'shma gap turlari:

158. Berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi? Chaqirsam, indamaysiz.
159. Keltirilgan misolda tagiga chizilgan so'zlar gapning qaysi bo'lagi kelgan? Adabiy ijod sohasida qanday jarayonlar kechayotganini bilgilari keladi.
160. Birikmali qo'llangan gap bo'laklarini aniqlang. U muhim topshiriqni bajarganidan sevinchini ichiga sigdira olmas edi.
161. Misolda "yaxshi" so'zi gapning qaysi bo'lagi vazifasida kelgan? Yaxshi yomon libos bilan ham yaxshi.
162. Tagiga chizilgan so'zlar gapning qaysi bo'lagi vazifasida kelgan? Ko'ngliga kelgan gapni ochiq aytishga Nizomjonning sira tili bormadi.
163. Misolda tagiga chizilgan so'zlar gapning qaysi bo'lagi vazifasida kelgan? Jahongirov qanchalik obro'ga ega ekanligini namoyish qildi.
164. Berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi? Til boshqa-yu, dil birdir, chunki el birdir.
165. Gapning tuzilishiga ko'ra qaysi turligini aniqlang. Nur borki, soya bor.
166. Quyidagi gapda ega vazifasidagi so'zni aniqlang. Zaminni, zamonni yashartir, Navro'z!
167. So'zlar o'zaro teng bog'langanda qanday vositalar orqali birikadi?
168. –mi, -chi, -a, -ya yuklamalari yordamida qanday gap tuziladi?
169. Qaysi qatordagi atamalar grammatikaning sintaksis qismiga tegishli?
170. Tashvish bilan inson qiladi huzur. Ushbu gapda kesim vazifasida kelgan so'zni belgilang?
171. Qaysi qatordagi gapda maqsad holi maqsad ravishdoshi bilan ifodalangan?
172. Qaysi gapda aniqlovchi tarkibida fe'ning funktsional shakllari mavjud?
173. Sifatlovchi o'z sifatlanmishiga qanday yo'l bilan birikadi?
174. Qaysi qatordagi boshqaruv aloqasida grammatik vosita shaklan ifodalanmagan?
175. O'xshatish ma'nosini bildirgan izohlovchi qaysi qatorda bor?
176. Keltirilgan misolda gapning qaysi bo'laklari uyushib kelgan? Abdulla aka a'zolikka qabul qilinganlar bilan erinmay gaplashar, bilimi, dunyoqarashi, nimalar o'qiyotganini obdon surishtirar edi.
177. Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan ko'za ichiga qamab bera oladi. Bu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?
178. Qo'shma gapning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang.
179. Berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
180. Chaqirsam, indamaysiz.

181. Keltirilgan misolda tagiga chizilgan soʻzlar gapning qaysi boʻlagi boʻlib kelgan? Adabiy ijod sohasida qanday jarayonlar kechayotganini bilgilar keladi.
182. Birikmali qoʻllangan gap boʻlaklarini aniqlang. U muhim topshiriqni bajarganidan sevinchini ichiga sigʻdira olmas edi.
183. Misolda “yaxshi” soʻzi gapning qaysi boʻlagi vazifasida kelgan? Yaxshi yomon libos bilan ham yaxshi.
184. Tagiga chizilgan soʻzlar gapning qaysi boʻlagi vazifasida kelgan? Koʻngliga kelgan gapni ochiq aytishga Nizomjonning sira tili bormadi.
185. Keltirilgan misolda gapning qaysi boʻlaklari uyushib kelgan? Yozuvchining qanaqa asarlar yozayotganiga, qanday yozishiga qiziqadilar.
186. Misolda gapning qaysi turi berilgan?
Yaxshidir achchiq haqiqat.
Lek shirin yolgʻon yomon.
187. Shaxsi maʼlum gaplarda egani anglatib turuvchi grammatik shakl asosan qaysi?
188. Aytishlaricha, bu yil qish iliq kelar emish. Ushbu gapdagi kirish soʻz qanday maʼnoni anglatadi?
189. Demak, maktabni bitirib, oʻqishga kirmoqchisan?
Ushbu gapdagi kirish soʻz qaysi maʼnoni bildiradi?
190. Siz ham shunday oʻylaysizmi? Aksincha!
Ikkinchi qatordagi gap qaysi javobda toʻgʻri izohlangan?
191. Shunisi maʼlumki, u Gulnozaning fikriga qoʻshilmaydi.
Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?
192. Esrlaringda bormi, bir yili men bir kunda 846 kg paxta tergan edim. SHu gapni turini toping.
193. Yer oʻrik emaski, oʻzi gullab oʻzi pishsa. Mazkur gap ergash gapning qaysi turiga kiradi.
194. Murakkablashgan sodda gapning sodda gapdan farqini belgilang.
195. Yomgʻir sharros quysa-da, bolalar oʻyinni davom ettirar edilar. Ergash gapning turini aniqlang?
196. Sintaksis...
197. Sintaksis nimani oʻrganadi?
198. Asosiy sintaktik birliklar:
199. Sintaktik aloqalarni ifodalovchi vositalar...
200. Shakar qovunlarning mayin hidlari sabo bilan tarqalur sekin. Sifatlovchi aniqlovchilarni toping.

№	Muallif	Adabiyot nomi	Adabiyot turi	Nashr yili	Adabiyotning ARM dagi shifri	Adabiyotning ARM dagi inventar raqami	ARM dagi soni
1	M.Asqarova	O'zbek tili praktikumi	O'quv qo'llanma	"Iqtisod-moliya" T-2006	81.2Ў3	y/κ 3765	25ta
2	I.Madrahimov	Hozirgi o'zbek adabiy tili	O'quv qo'llanma	"Farg'ona" F-2008	81.2Ў3	312148	5 ta
3	N.Mahmudova	O'zbek tilining nazariy grammatikasi	O'quv qo'llanma	"O'qituvchi". T-1995	81.2Ў3	y/κ 4408/1-30	49 ta
4	D.Lutfullayeva	Hozirgi o'zbek adabiy tili II qism	O'quv qo'llanma	"Iqtisod-moliya" T-2018	81.2Ў3	y/κ 4408/1-30	30 ta

Qo'shimcha adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risi"dagi Farmoni ("Xalq so'zi",2017 -yil,8 -fevral)

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora –tadbirlari" to'g'risida ("Xalq so'zi", 2017-yil, 21-aprel)

3.Qilichov E. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Ma'ruza matnlari. To'ldirilgan 2-nashri. - Buxoro: "Buxoro universiteti", 2001.

4.O'zbek tilining imlo lug'ati. -T.: "FAN", 1976.

5.O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati,-T.: "Sharq",1999.

6.Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2002.

7.Ne'matov H.O'zbek tili tarixi fonetikasi.-T.: "O'qituvchi", 1992.

8.Nurmonov A.N. O'zbek tili fonologiyasiva morfonologiyasi.-T.: "O'qituvchi",2005.

- 9.Rahmatullayev.SH.U. O`zbek tilining yangi alifbosi va imlosi.-T.: “Unversitet”,1999.(Qayta nashri 2002.)
- 10.Jamolxonov.H.A. Fonetika, fonologiya va orfoepiya. Ma`ruzalar matni.-T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 1999.
- 11.Abduazizov. A. O`zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. -T.: “O`qituvchi”, 1992.
- 12.Jamolxonov.H.A. Grafika va orfografiya. Ma`ruzalar matni. -T.: Nizomiy nomli TDPU, bosmaxonasi,1999.
- 13.Mahmudov.A. Unlilar. -T.: O`zFA,”Kibernetika”, ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi.1993.
- 14.Mirtojiyev.M.M. O`zbek tili fonetikasi. -T.:”Unversitet” 1998. 2013.
- 15.Tursunov.U.M. ; Muxtorov I.; Rahmatullayev SH. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Qayta ishlangan, to`ldirilgan nashri. -T.: ”O`zbekiston”, 1992.
- 16.To`ychiboyev B. O`zbek tili tarixiy fonetikasi. -T.: ”O`qituvchi”, 1990.
17. O`zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. -T.: “Fan”, 1956.
- 18.O`zbek tilining asosiy imlo qoidalari. -T.: ”O`qituvchi”, 1995.
- 19.Ne`matov H., Bozorov O. Til va nutq. -T.: “O`qituvchi”, 1993.

Elektron ta'lim resurslari.

1. www.literature.uz.
2. www.genhis.philol.
3. [http:// en. wikipedia.org/.wiki/Structuralism](http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism).
4. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>.

60111400-O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi bitiruvchi sirtqi talabalari uchun “O‘zbek adabiyoti” fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovining dasturi

“O‘zbek adabiyoti” eng qadimgi davrlardan XX asrning boshlarigacha, mustaqillik davrida yaratilgan muhim adabiy merosni o‘rganish, bu adabiyotni yaratgan shoirlar, adiblar – mualliflar hayoti va ijodiy faoliyatini, adabiy-ijtimoiy muhit, xalqlar o‘rtasidagi adabiy va madaniy aloqalar va eng muhimi, o‘zbek badiiy tafakkuri taraqqiyoti tadrijini o‘rganishni va o‘rgatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Mazkur fanning vazifasi o‘zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, har bir bosqichda yashab ijod etgan ijodkorlar asarlarini g‘oyaviy-badiiy, estetik jihatdan tahlil va talqin qilish, milliy va zamonaviy adabiyotning eng nodir namunalarini o‘rganishni nazarda tutadi.

Modul-kredit tizimida ta'lim olayotgan talabalar "Adabiyot tarixi" fan dasturining 1-moduli " **Eng qadimgi adabiy yodgorliklar**", 2-modul "X-XIII asrlar adabiyoti" bo'limini 1-kursning ikkinchi semestrda o'qib o'rganadilar. Mazkur fan dasturining 3- moduli bo'lgan "XV-XVII asrlar adabiyoti" hamda "XVII – XIX asrlar o'zbek adabiyotida ijtimoiy siyosiy va madaniy hayotdagi o'zgarishlar" mavzulari " 2-kursning 3-semestrda, "XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti", "Milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti", "XX asr o'zbek adabiyoti" masalalarini qamrab olgan 4-5-6-7-modullar 4-5-semestrda o'tish rejalashtirilgan hamda 4- semestrda mazkur fandan kurs ishi va talabalar yakuniy davlat attestatsiyasida "O'zbek adabiyoti" fanidan imtihon topshirishi belgilab qo'yilgan.

60111400- O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi bitiruvchi sirtqi talabalari uchun O'zbek adabiyoti fanidan yakuniy davlat attestatsiya sinovlarining asosiy savollari

1. Qaysi asarda “Bir kishiga iki narsa bo‘lsa unga muruvvat yo‘li yopiladi, birinchidan, behuda so‘zlar bilan vaysasa, ikkinchida bu kishining so‘zlari yolg‘on bo‘lsa” degan fikrlar bor?
2. Qaysi asarning Qohira, Vena, Namangan kabi nusxalar bor ?
3. Quyidagi satrlar qaysi asardan olingan: “agar arslon itlarga bosh bo‘lsa, itlar arslonga aylanadi, lekin it arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar itlar kabi bo‘lib qolishi mumkin”.
4. “Qutadg‘u bilig” asarini eronlik va turonliklar qanday ataganlar?
5. Qaysi adib o‘z asarini “kashg‘archa til” bilan yozganini aytadi?
6. “Avesto”da Sraosha kimning hamrohi sanaladi?
7. Lutfiyning qaysi g‘azali qofiyasi yo radifi so‘roq bilan tugaydi?
8. Kim namanganlik Muhammad hoji Eshon Lolareshning qo‘lida “Qutadg‘u bilig” ning yana bir nusxasi borligi haqida ma’lumot beradi?
9. She’rda maqol keltirish san’ati nima deyiladi?
10. “Hibat ul- haqoyiq” asarida ilm manfaati, jaholatning zarari haqida qaysi bobda yozilgan?
11. Elni boshqarish ham beklik asosi, Ikki narsa erur asl ildizi. Deganda Yusuf Xos Hojib nimani nazarda tutadi?
12. “Qissasyi Rabg‘uziy”da shayton qaysi meva urug‘ini o‘g‘irladi va uch marta sug‘orish uchun ruxsat oldi.
13. Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asari ta’sirida dunyoga kelgan nasriy didaktik asarlarni aniqlang?
14. Ko‘rgali la’ling aqiqin ko‘nglum ul yon tortadur, Bu yamon andishaliqni go‘yiyo qon tortadur. Ushbu matla’li g‘azal muallifi kim?
15. Kim afsonaga “Haqiqatdan xabar beruvchi yolg‘on hikoyat” deb ta’rif bergan?
16. «Qissayi Rabg‘uziy»da yozilishicha, Sulaymon payg‘ambar bilan suhbat qurgan mo‘rcha (chumoli)ning oti nima edi?
17. “Muhabbatnoma” ning bizgacha necha nusxasi yetib kelgan?
18. “Hibat ul- haqoyiq ” asarining nechanchi bobi tilni tiyish odobi haqida ?
19. O‘zbek adabiyotini Lutfiy qaysi janrlar bilan boyitgan?
20. Yoz fasli in bori bu lazzat-u ishrat bila, Yol’giz men muhtalo dard-u g‘am-u mehnat bila. Xalq gulgash etarlar g‘unchadek o‘ynab-kulub, Kunji mehnattur dag‘i, men yig‘la-yu hasrat bila Ushbu g‘azal muallifi kim?
21. Arabiy va forsiy adabiyotda uchramaydigan, faqat turkiy adabiyot adabiyot uchun xos bo‘lgan janr qaysi?
22. “Qutadg‘u bilig” asaridagi Oyto‘ldining ma’nosi qaysi qatorda izohlangan?
23. Gadoiy o‘zining devonida g‘azaldan tashqari yana qaysi janrlarda she’r ijod qilgan?

24. Abu Mansur As- Saolibiy qancha ilmiy asar yozgan ?
25. Qutadg‘u bilig‘ning Qohira nusxasi qaysi yozuvda ko‘chirilgan?
26. «Kimki quyoshni qo‘li bilan bekitmoqchi bo‘lsa xato qiladi. Quyoshni choyshab bilan yopib bo‘lmaydi » Ushbu parcha qaysi asardan olingan ?
27. Tuyuquq bitiktoshida Tunyuquq necha kishini birlashtirib shad degan unvon oladi?
28. “Uma kelsa qut kelur”. Ushbu jumla “Devonu lug‘atit turk”da qaysi janrda deb hisoblanadi?
29. Lutfiy qaysi g‘azalining har bir baytida bittadan maqol qo‘llagan?
30. Lutfiyning “Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu” g‘azali qaysi vaznda yozilgan?
31. Xo‘jandiyning «Latofatnoma» asari qaysi shaklda yozilgan ?
32. Qaysi asarda so‘ngakda ilik bo‘lishi lozimligi kabi er kishiga bilim kerakdir, ko‘rki aqlidir, so‘ngakning ko‘rki ilikdir degan fikrlar berilgan?
33. Koshg‘arning ikkinchi nomi nima?
34. Lutfiyning “Xoh inon, xoh inonma” radifli g‘azaliga kim nazira bitgan?
35. Qutadg‘u bilig‘ asarini kim baytma-bayt o‘zbek tiliga ilmiy tabdil qilgan?
36. “Qutadg‘u bilig‘” asarida “Bek bu ikki narsa bilan elni buzadi” deyiladi. Bu ikki narsa nimaligini aniqlang?
37. Ohkim, devona ko‘nglum muhtalo bo‘lmish yana, Bu ko‘ngulning ilgidin jonga balo bo‘lmish yana. Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asarida qaysi shoirning ushbu matla‘li g‘azalini mashhur ekanligini ta’kidlaydi?
38. “Avesto”da bitmas-tuganmas kuchga ega pahlavon sifatida tasvirlangan timsol kim?
39. Qaysi asar Mahmudxon sultonga bag‘ishlangan?
40. Navoiy qaysi asarida “Muhabbatnoma” dan ijodiy foydalangan?
41. “Qutadg‘u bilig‘” asarini chinliklar va mochinliklar qanday nomlagan?
42. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig‘” asarini kimga taqdim qiladi?
43. Qaysi ijodkor o‘zi haqida « ...bu kitobni tuzgan , toat yo‘lida tizgan, ma’siyat yobonin kezgan , o‘zi ozuqlug‘, ko‘p yozuqlug‘... » deagn so‘zlarni qayd etgan ?
44. Lutfiyning qaysi g‘azali ham mumtoz yo‘lda, ham zamonaviy estrada usulida ashula qilingan?
45. Kim qaysi asarida “Mavlono Lutfiy o‘z zamonasining malik ul-klomi erdi, forsiy va turkiyda nazri yo‘q erdi va turkcha devoni mashhurdir” deb yozadi?
46. Qaysi shoir Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma » asari asosida o‘zbek tilida 10 ming baytdan ziyodroq masnaviy – doston bitadi?
47. “Avesto”ga ko‘ra Axuramazda tomonidan yaratilgan birinchi odam qanday nomlangan?
48. Kim “Qutadg‘u bilig‘” asari haqida 1823-yilda ma’lumot chop etib, uni ilm ahliga tanishtiradi?
49. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari qachon yozilgan?
50. “Qutadg‘u bilig‘” asarining qaysi nusxasi 1439-yilda Hirotda uyg‘ur yozuvida ko‘chirilgan?

51. Xorazmiy "Muhabbatnoma" ning nechanchi nomasida tong nasimiga murojaat qiladi?
52. Tuyuqqa xos xususiyatlar qaysi qatorda ko'rsatilgan?
53. "Qutadg'u bilig" asarining muqaddimasi qanday yo'lda yozilgan?
54. Qaysi asar Qoraxoniylar davrining mafkuraviy ta'limoti sifatida ham alohida ahamiyatga ega?
55. Qadimgi qo'shiqlar necha hijoli bo'lgan?
56. Nuh alayhissalom uzumni nimalarning suvi bilan sug'ordi?
57. "Avesto"da kuch qudrat, baxt saodat ramzi qaysi timsol bilan berilgan?

58. «Qissayi Rabg'uziy» asaida Nuh alayhissalom uzumni nima bilan su'gorgandan so'ng undan sirka paydo bo'ldi ?
59. She'riy asarlarining yarmini ruboiylar tashkil qilgan shoir...

60. Turkiy va forsiy adabiyotda shohlar haqidagi asar asosan qaysi vaznda bitilgan?
61. "Zarina va Strangiya" afsonasi kimning asari orqali yetib kelgan?

62. Qaysi shoir o'zining g'azalida agar g'azallari lutfini bilsa, Xo'jandiy «Latofatnoma» sidan kechar edi » deb yozadi ?
63. "Hibat ul- haqoyiq" asarining nechanchi bobi saxovat va baxillik oqibati haqida?
64. «Qissayi Rabg'uziy» asarida «... yigitlar ariq(pok)i, ulug' otli, qutlu zotli, ezgu xulqli, islom yoriliq, mug'ul sanili, musulmon dinli, odamiylar odami, mo'minlar quvonchi, himmari adiz(yuksak) , aqli tengsiz beg» deya ta'riflangan tarixiy shaxs kim ?
65. "Zariadr va Odatida" afsonasi kimning asari orqali yetib kelgan?

66. "Qutadg'u bilig" asarining vazni?
67. Kim qaysi asarida Lutfiy haqida "To'qson to'qqiz yoshadi deya ma'lumot beradi?

68. “Avesto”da yomonlik xudosi kim?
69. Kimniki bek qilib yaratishni istasa Xudo, Oldin unga aql-u uquvdan qanot beradi. Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
70. Kim “Qutadg‘u bilig” ni “Baxtliklanish bilimi” deb tarjima qiladi?
71. Bolosog‘un shahri ba’zi manbalarda yana qanday nom bilan yuritilgan?
72. “Qutadg‘u bilig” asarida qaysi kasb kishilari haqida “ulardan qimirlagan jonga naf bor, ular qo‘li ochiq bo‘ladi, Ko‘nglini xudo bergandan ziyod keng tutadi “deya ta’rif berilgan?
73. Xorazmiy “Muhabbatnoma” ning nechta nomasini fors-tojik tilida yozadi?
74. Xorazmiy “Muhabbatnoma” ning qaysi nomalarini fors-tojik tilida yozadi?
75. “To‘maris” afsonasi kimning asari orqali yetib kelgan?
76. “Shiroq” afsonasi kimning asari orqali yetib kelgan?
77. “Dilbaro sensiz tiriklik bir baloyi jon emish, Kim aning dardi qoshida , yuz o‘lum hayron emish”. Ushbu matla’li g‘azal muallifi kim?
78. “Devonu lug‘atit turk” qanday asar hisoblanadi?
79. “Devonu lug‘atit turk” necha qismdan iborat?
80. Qaysi asar Tavg‘ach ulug‘ Bug‘roxonga bag‘ishlangan?
81. Yusuf Xos Hojib haqidagi ma’lumotlarni qaysi asardan olishimiz mumkin?
82. O‘zbek adabiyotidagi noma janrining ilk namunasi qaysi?
83. “Muhabbatnoma” ning nisbatan to‘laroq nusxasi necha baytdan iborat?
84. “Avesto”da yaxshilik xudosisining ismi kim?
85. Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari necha bobdan iborat?
86. Qaysi janr forscha “xat”, “maktub” degan ma’noni beradi?
87. Bizgacha yetib kelgan ilk yozma turkiy doston qaysi?
88. “Qutadg‘ubilig” asari nusxalari qaysi yozuvda yozilgan?
89. O‘gdulmish qaysi qatorda izohlangan?
90. Qaysi asarda “suvga tayanma, chunki dunyo ne’matlarining shrinligiga, bahor go‘zalligiga suyangan kishilar suvga suyangan bo‘ladilar” degan fikrlar berilgan?
91. Kim “Qutadg‘u bilig” asarini Istanbulda sotib olib, Venadagi Saroy kutubxonasiga keltiradi?
92. “Oltin qon” afsonasi qaysi asar tarkibida uchraydi?
93. “Qutadg‘u bilig” asarining hajmi qancha?
94. Quyida berilgan qaysi asar Abulqosim Abdullo binni Muhammad al- Muqtadoga bag‘ishlangan ?
95. “Muhabbatnoma” nusxalari qaysi yozuvda ozilgan?
96. XIV asrda tojik tilidagi daftarlari, ya’ni to‘plamlari, “shakartek til” bilan el orasida ma’lum-u mashhur bo‘lgan shoir kim edi?
97. “Hibat ul- haqoyiq ” asarining nechanchi bobi dunyoning foniyliigi haqida?

98. Qaysi asarda “Bu dunyo ” qo‘nib yana ketadigan rabotdir, bu rabotga tushib o‘tuvchilar qo‘nib keta beradi. Oldingi karvon yo‘l bosib o‘zib ketdi, shu oldingi karvon necha manzilni bosib o‘tdi” degan fikrlar bor?
99. Sultonmurod Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro” asari kimga bag‘ishlangan?
100. “Go‘ro‘g‘li” dostonining Ozarbayjonda qancha nusxasi mavjud?
101. Hamzaning “milliy ro‘moni” qaysi?
102. Abdulla Avloniyning alifbe darsligi qaysi qatorda berilgan?
103. A.Avloniyning ma‘lum sabablar bilan bosilmay qolgan asarlari qaysilar?
104. “Sho‘royi islom” jamiyatini kim tuzadi?
105. Furqatning tarjimai holi qaysi nomlar bilan atalib kelgan?
106. Muqimiyning 3qismdan iborat, jami 244misrali asari qaysi?
107. Qaysi hukmdor “Shashmaqom” kuylariga o‘ndan ortiq kuy yaratgan?
108. Fitratning dramalari to‘g‘ri berilgan qatorni toping.
109. "Bobur - dilbar shaxs... Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan". Bu fikrlar kimga tegishli?
110. Turdining “Subhonqulixon haqidagi hajviya”si qaysi janrda yozilgan?
111. Mashrab bilan kimning o‘rtasida kanizak tufayli ixtilof chiqadi?
112. Maknuna taxallusi bilan qaysi shoira ijod etgan?
113. Bobur tartib bergan devonlar adabiyotshunoslikda qanday nom bilan yuritiladi
114. Furqatning “Munojoti musaddas” asari nimaga bag‘ishlangan?
115. Mashrab ijodi haqida ma‘lumot beruvchi Majzub Namangoniy asari qanday nomlanadi?
116. Turdi ijodiga shaxsiy munosabatlar ifodasi sifatida baho bergan olim kim?
117. Huvaydo avlodidan bo‘lga qaysi ijodkor ayni paytda uning devonini ko‘chirgan kotib ham hisoblanadi?
118. Nishotiyning “Husnu Dil” asari qachon yozilgan?
119. Shoir Maxmurning asl ismi?
120. Komilning yevropacha kuy va raqsdan olgan taassuroti asosida yozilgan g‘azali qaysi?
121. Huvaydo she‘rlaridan birida “boshi yetmish, oyog‘ yuz, uch yuz badanlik qush ” haqida gapiradi. Bu qush nimaga ishora va bu ishora zaminida qanday badiiy san‘at yotadi?
122. “Mayxonag‘a kirdim, bila qoldim” Mashrabga mansub ushbu misradagi nuqtalar o‘rnida qaysi so‘z bo‘lishi kerak?
123. Liqo so‘zining ma‘nosini aniqlang
124. Nodiraning tavallud va vafot sanasini ko‘rsating.
125. Uvaysiyning farzandlari ismini toping

126. Turdi qachon vafot etgan?
127. Mashrabning adabiy merosi qaysilar?
128. Qaysi muallif Gulxaniyning otashintabiatligi uchun “Gulxaniy” taxallusini olganini aytgan?
129. Ogahiy ijodining yirik tadqiqotchilaridan biri?
130. Muhammad Rajab Avj nomi kimning asarida uchraydi?
131. Uvaysiy haqidagi ilk maqola muallifi kim va u qayerda e’lon qilingan?
132. Muqimiyshunoslik maktabiga asos solgan olim qaysi?
133. Hodixo‘ja qaysi hajviy asar qahramoni?
